

Abdiyeva Ruxshona

*Toshkent davlat Geologiya fanlari universiteti iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalari)
yo'nalishi I bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk bobomiz bo'lmish Mirzo Ulug'bek haqida, uning qilgan buyuk ishlari, ilm fan uchun qo'shgan ulkan hissalar borasida nafaqat o'z milattimizda, mamlakatimizda ulug'lanib, e'tirof etilgani haqida, balki bunday ajdodimiz haqidagi Jahon tan olgan olimlar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yanada chuqurroq tahlil qilingan.*

Kalit soʻzlar: *Munajjim, matematik, simpozium, astronomiya sohasi, gryadura, Soyuz Apollo dasturi, trigonometrik jadval, fenomen.*

Аннотация: *В данной статье более глубоко с точки зрения всемирно признанных ученых анализируются наши прадед Мирзо Улугбек, его великие дела, большой вклад в науку, которые были прославлены и признаны не только в нашем народе и стране, но и во всем мире.*

Ключевые слова: *Астролог, математик, симпозиум, область астрономии, грейдер, программа «Союз Аполлон», тригонометрическая таблица, феномен.*

Annotation: *In this article, our great grandfather, Mirzo Ulugbek, his great deeds, great contributions to science, which were glorified and recognized not only in our nation and country but also in the entire world are analyzed in more depth from the point of view of world-recognized scientists.*

Keywords: *Astronomer, mathematician, symposium, astronomy, gravity, Soyuz Apollo program, trigonometric table, phenomenon.*

Kirish

“Ulug' o'zbek olimi, munajjim, matematik, fizik, me'mor, temuriylar sulolasining munosib davomchisi, yirik davlat arbobi Muhammad Tarag'ay – Ulug'bek (Mirzo Ulug'bek) tavalludiga 600 yil to'lishi munosabati bilan:

jamoat fikrini quvvatlab, allomaning jahon ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasini e'tiborda tutib;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi tashkiloti (YUNESKO) Bosh konferensiyasining 27-sessiyasi qaroriga ko'ra Mirzo Ulug'bek yubileyi jahon qadriyatlari ro'yxatiga – 1994-yilda dunyo miqyosida nishonlanadigan bayramlar qatoriga kiritilgani va shu munosabat bilan tashkil etiladigan xalqaro tadbirlarni hamda respublikada olib borilayotgan ulkan xayrli ishlarni inobatga olib;

yosh avlod qalbida milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularning ilm-ma'rifatga bo'lgan intilishini rag'batlantirish hamda mustaqil O'zbekiston ilm-fani rivojiga ko'maklashish maqsadida;

1994-yil O'zbekiston Respublikasida Mirzo Ulug'bek yili deb e'lon qilinsin." - O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov. ¹Garchi ushbu farmon ayni paytda o'z kuchini yo'qotgan bo'lsada, bu tarixda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizning azaldan ulug'lanib kelinayotganligi hamda hozirgi paytga kelib yangidan-yangi qarorlar, farmonlar orqali ularning qanday buyk ishlar qilganliklarini hamda Jahon ilm-faniga qo'shgan ulkan hissalarini, hozirda unib -o'sib kelayotgan yosh avlodga yanada chuqurroq singdirilayotganini sezsak bo'ladi. Va albatta, bunday ishlar, faqatgina bizning yurtimizda emas, balki butun dunyo bo'ylab qilinib kelayotgani, ular haqida, qilgan ishlari borasida ta'kidlab o'tgan ulug'vor fikrlari hamda taqsiqga sazovor maqto'vlar - bu Jahonning biz turkiy millatidan yetishib chiqqan allomalarga bo'lgan cheksiz hurmatlaridan dalolat beradi. Va bu borada, aynan, Mirzo ulug'bek haqida, butun dunyo o'zgacha nigoh hamda yuksak faxr va g'urur ila xotirlaydi.

Bunga misol tariqasida, mustaqillik yillarimizda Istambulda Ulug'bekning 600 yilligi hamda Kandil rasadxonasining 125 yilligiga bag'ishlab Turkiyada va islom olamida fan va texnologiya bo'yicha Xalqaro simpozium bo'lib o'tganligi va ushbu Simpozium ishida O'zbekiston olimlari ham ishtirok etganligi², xuddi shu yilning 24 oktyabr sanasida Parijda YUNESKOning majlislar o'tkaziladigan zalida "Ulug'bek va buyuk Temuriylar davri" mavzuida Xalqaro konferensiya bo'lib o'tganligida hamda "Ulug'bek va an'anaviy san'at" ko'rgazmasi ochilganligida ³Mirzo Ulug'bekka bo'lgan qadr- qimmatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, Mirzo Ulug'bek o'zini har jabhada sinab ko'rgan serqirra olim hisoblanadi. Xususan, astronomiya sohasida nafaqat o'z millatimiz uchun, balki butun dunyo uchun buyuk kashfiyot yaratgan. Bu borada Sovet va Rossiya kosmonavti va aviatori, Harbiy havo kuchlari general-mayori, yozuvchi va rassom Aleksey Arkhipovich Leonov shunday deydi: " 1974-yili Soyuz Apollo dasturi bo'yicha so'ngi mashg'ulotlar payti, kosmodromda Deke Slayton, Vance Brand, Tom Stafford, Eugene Cernan va Mitchel O'zbekistonga safar qilish istagini bildirishdi. Nima qilasiz u yerda deb so'radik biz. Samarqandga borsak, Ulug'bek yashagan manzil-makonlarni ko'rsak degandik deya javob berdi ular. Men Ulug'bekni insoniyatning favqulodda fenomeni deb bilaman. Zamonaviy astronomiyada fenomenlar kam. Tsiloviskiy va Korolev fenomeni, tavalludidan to

¹ <https://lex.uz/docs>

¹ <https://islomkarimov.uz/uz/page/ijtimoiy-hayot-1994-yil>

² <https://islomkarimov.uz/uz/page/ijtimoiy-hayot-1994-yil>

o'lguniga qadar barcha tafsilotlardan xabardor inson sifatida Yuriy Gagarinni ham alohida e'tirof etaman. Ulug'bek esa o'rta asrlar dahosi, Yaratganning nazari tushgan alloma!"⁴. Ushbu taqsiinga sazovor so'zlarni haqiqatligini atoqli astronom Yan Heveliusning XVII asrda Yevropada chop ettirgan yulduzlar osmoni xaritasiga bir gryadura ilova qilingani va ushbu ramziy suratda turli davr va mamlakatlarda yashagan buyuk astronomlarning majlisi aks etgani hamda Ptolomey, Tixo Bragey, Riccioli, Vilgelm IV chi, Yan Hevelius kabi buyuklarning orasida Mirzo Ulug'bekning surati mavjudligi guvohlik beradi.

Samarqandni Samarqand qilib turgan Go'ri Amir, Bibixonim hamda Registon kabi obidalaridir. Hamda, bundan kelib chiqib tan olishimiz kerakki, Ulug'bek professional me'mor hamda kuchli matematik sifatida ham Jahonda o'z nomini muhrlab qo'ygan. Buni AQSH ning New-Jersi shahrida joylashgan Princeton universitetining fizigi Paul Steinhardt o'z fikrlari bilan isbotlab beradi: "Bu suratdagi kabi murakkab majmuani yaratish, geometriya va trigonometriya bo'yicha chuqur bilimlarni talab etadi. Ulug'bek trigonometriyani dastlabki tadqiqotchilaridan biri sifatida ilk mukammal trigonometrik jadvallaridan birini tuzdi hamda sinus, kosinus va boshqa trigonometriya amallarini izohladi. Ayni chog'ida bu kabi murakkab qurilmalarni xususiyatlarini ham ko'rsatib berdi."⁵

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug'bek har jabhada o'z professionalligi hamda serqirra ijodkor, olimligi bilan Jahonda ilm-fan, madaniyat sohalarini paydo bo'lishiga hamda butun dunyo ilm-fanining, madaniyatining qaysidir ma'noda asosiy poydevori sifatida tan olishimiz joizdir. U sababli, falakiyot ilmida nihoyatda katta yangilik kiritildi, u tufayli, butun o'zbek tarixini o'zida mujassam etgan obidalarimiz bunyod etildi, u sababli matematika raqamlari yanada aniqlashdi, rivojlandi, u tufayli, hozirgi davr olimlari va tadqiqotchilarning olib borgan va borayotgan tadqiqotlariyu, izlanishlariga sabab bo'lgan ulug'vor meroslar yaratildi. U haqida yana qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, Mirzo Ulug'bek kuchli tahliliy tafakkur sohibi bo'lib, murakkab matematik amallarni dilida bajara olgan. Buni isboti sifatida esa, Ulug'bekning astronomik maktabi vakillaridan biri - G'iyosiddin Jamshid Koshiyning u haqida hayrat bilan yozgan so'zlarini keltirsak, kunlarning birida Ulug'bek ot ustida quyoshning balandligini vaqt birligida o'lchab, tushayotgan nurning tekislikka nisbatan og'ish burchagini trigonometrik usulda yoddan hisoblab chiqqan ekan.⁶

³ [Buyuk bobomiz Mirzo Ulug'bek haqida filmdan parcha - YouTube](#)

¹ [Buyuk bobomiz Mirzo Ulug'bek haqida filmdan parcha - YouTube](#)

¹ <https://tma.uz/wp-content/uploads/2024/04/MIRZO-ULUG-BEK-ko-rilgan.pdf>

Matematika sohasida esa uni biz shunday deb atashimiz mumkinki, Ulugʻbek murakkab matematik tenglamalarni juda tez va oʻziga xos usulda epchillik bilan yecha olgan. U oliy madrasada talabalar uchun oʻqigan tabiiy fanlarga oid maʼruzalarida trigonometrik va sferik astronomiyaga oid hisob-kitoblarni ham yoddan hisoblay olish qobiliyatini koʻrsatgan. Bu mashgʻulotlarda Ulugʻbek murakkab trigonometrik va algebraik masalalarni yechishda oʻziga xos usullardan mahorat bilan foydalangani, qiyin matematik masalalarni yechishning xilma-xil usullarini yaxshi bilgani haqida maʼlumotlar saqlanib qolgan. Ayniqsa, astronomik observatoriyada olib borilgan hisob- kitoblarda bu qobiliyati unga juda qoʻl kelgan. Hozirgi zamon fani nuqtayi nazaridan ham bu hisob-kitoblar oʻzining aniqligi bilan dunyo olimlarini hayratga solmoqda.⁷

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs>
2. <https://islomkarimov.uz/uz/page/ijtimoiy-hayot-1994-yil>
3. [Buyuk bobomiz Mirzo Ulug'bek haqida filmdan parcha - YouTube](#)
4. <https://tma.uz/wp-content/uploads/2024/04/MIRZO-ULUG-BEK-ko-rilgan.pdf>

² <https://tma.uz/wp-content/uploads/2024/04/MIRZO-ULUG-BEK-ko-rilgan.pdf>